



# TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 2 2024-YIL 26-FEVRAL

8-MART - XALQARO XOTIN-QIZLAR BAYRAMI

Go'zal diyorimizning  
muhtarama ayollari,  
munis, mo'tabar  
onaxonlari, Toshkent  
tibbiyot akademiyasining  
faxri bo'lmish ziyozi  
opa-singillar, tibbiyot  
sohasining ravnaqiga  
munosib hissa  
qo'shish niyatida  
o'qib, o'rganayotgan,  
izlanayotgan talaba  
qizlarni yaqinlashib  
kelayotgan 8-mart –  
Xalqaro xotin-qizlar  
kuni bilan samimiyl  
tabriklayman.



## YA QINLASHIB KELAYOTGAN BAHOR BAYRAMI MUBORAK BO'L SIN!

Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki bo'lgan xotin-qizlarni e'zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Chunki sizlar bilan hayotimiz go'zal va mazmunli, xonardonlarimiz obod va nurafshondir.

Vatanimiz taraqqiyoti, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlar muhim o'rinni va mavqega ega. Ayollarimiz mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, siyosiy-iqtisodiy hayotidagi barcha sohalarda xususan, davlat boshqaruvi va vakillik organlarida, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, fermerlik, sog'lioni saqlash, ta'lim, ma'rifat, madaniyat va boshqa sohalarda samarali mehnat qilishmoqda.

Bu borada muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: "Siz, hurmatli

ayollarimiz o'zingizning onalik mehringiz, hayotiy bilim va tajribangiz bilan farzandlarimizni turli xavf-xatarlardan asrashda, ularni mustahkam irodali, ma'naviy-intellektual jihatdan yetuk, jonajon Vatanimizga sadoqatli insonlar etib tarbiyalashda bundan buyon ham kuch-g'ayratingizni ayamaysiz, deb ishonaman. Ayniqsa, qiz bolalarni hayotga tayyorlash, ularni zamonaviy bilimlar, kasb-hunarlarga o'rgatishda biz avvalo sizlarga suyanamiz" degan so'zlar har jihatdan ibratlidir.

Darhaqiqat, Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy, tashkiliy va boshqa jarayonlarda qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni ayollarning ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ularning mehnatdagi, ilmiy-ijodiy izlanishdagi va o'quv jarayonidagi fidoyiligini hamisha yuksak qadrلaymiz. Bilimli, zukko, har tomonlama o'rnak olsa arziydigan,

nomdor stipendiant talaba-qizlarimiz safi yil sayin ortib borayotganligi bizni quvontiradi. Biz albatta bunday yoshlarimiz bilan faxrlanamiz.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi – aholi farovonligi va yurt taraqqiyotini belgilab beruvchi dasturulamal hujjatda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda Toshkent tibbiyot akademiyasining barcha jonkuylari qatorida ziyozi opa-singillar o'z hissalarini qo'shishlariga tilakdoshman.

Qadrli ustoz-murabbiylar, opa-singillar!

Barchangizni go'zallik va nafosat ayyomingiz bilan yana bir bor qutlayman.

Sizlarga mustahkam sog'lil, go'zallik, oilaviy baxt, xonadoningizga fayzu baraka tilayman.

A.SHADMANOV,  
Toshkent tibbiyot akademiyasi  
rektori

Hikmat



Dunyoda eng bebafo, ammo hamisha benazir  
tarqatiladigan xazina bor. Bu – Ona mehri!

Hikmat



2024-yil – “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”



## YOSHLAR – JAMIYAT TARAQQIYOTINING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHDIR

**Yurtimizda olib borilayotgan tizimli ishlar inson qadrini ulug'lash, xalqimiz turmushini yanada farovonlashishiga xizmat qilmoqda, desak hech mubolaga bo'lmaydi.**

Joriy yilni mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”, deb e'lom qilinishi ham ustuvor vazifalarning hayotga tatbiq etilishiga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Chunonchi, tadbirkorlik bu – ishlab chiqarish, uni realizatsiya qilish orqali foyda ko'rish degani. Demak, foyda ko'rishga asoslangan tadbirkorlik bilan xalqqa namunalni xizmat ko'sratish mumkin. Bu borada yoshlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda katta kuch hisoblanadi.

Yoshlar o'z tadbirkorligini boshlashi uchun va tadbirkorlik faoliyatida sof axloqiyruhiy muhitni yaratishda nimalarga, qaysi jihatlarga alohida e'tibor berish lozimligiga to'xtalib o'tsak. Avvalo, yoshlar dadillili bilan, qo'rmasdan ishga kirishishi lozim. Ikkilanish, sustkashlik bilan ko'zlangan natijaga erishish qiyin. Bunda yoshlarimizdan faqat g'ayrat va shijoat talab etiladi xolos. Ta'kidlash joizki Prezidentimiz hamda Hukumatimiz tomonidan har tomonlama yosh tadbirkorlar qo'llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, imtiyozli kreditlar bilan ta'minlab kelinmoqda. Shunday ekan ularni bu jahhada faolligini oshirish, rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash juda muhim hisoblanadi.

Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatida ishbilarmonlik sifatlarining mavjudligi ya'ni: yuqori uquv va malaka, yangi texnologiya talablariga mos bilim va tajribaga ega bo'lishi, ishlab chiqarish texnika va texnologiyasini chuqur bilishi, boshqarish usullarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi, o'z bilim, malaka, ko'nikmalarini oshirib borishiga alohida e'tibor berishi muhim hisoblanadi.

Shuningdek, yosh tadbirkorning tashqi ko'rinishi tartibili, ziyoli, nafosatli bo'lishi kerak. Xususan, niyoyatda aqli, tarbiyalı, fikri teran bo'lishi, bozor iqtisodiyoti sharoitining muhim talablariga to'g'ri keladi. Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatida sof axloqiyruhiy muhit yaratilsa, ularning ijodkorlik, kasbga qiziquvchanligi barqaror tus oladi va yaxshi niyat bilan maqsad va ehtiyojlarini qondirishga intilishi, mehnatsevarligi kuchayadi, yaratuvchanligi

yuzaga keladi. Ular o'zining bilimlari, kasbiy ko'nikmalar, aqliy malakalari bilan ijodiyot darajasiga o'sib o'tishi bilan jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Agarda yoshlar faoliyati tajribalar bilan uzviy bog'lansa, uning samaradorligi, maqsadga yo'nalganligi, amalga oshish imkoniyati yuksak bosqichga ko'tariladi.

Ma'lumki, qobiliyat tabiiy ravishda shakllanadi va muayyan reja asosida rivojlanadi.

Shu o'rinda yoshlarning tadbirkorlik va ishbilarmonlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari 304, 305, 306, 307, 308-guruh talabalari hamkorligida o'rganilganini aytish darkor.

Shunga ko'ra, yoshlarning tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishga ijobji ta'sir etuvchi quyidagi xislat, sifat va fazilatlarni alohida ta'kidlab o'tish lozim:

- ish faoliyatida nazariy-amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish;
- amaldagi qonunlarni to'liq tushunish va ularga itoat etish;
- halollik, rostgo'ylik, va'daga vafo qilish;
- kelajakka intilish, ertangi kunni ko'ra bilish;
- amalga oshirayotgan faoliyatida burch hissini sezish;
- insonparvarlik, mehnatsevarlik mardlik, jasurlik, shiddatlichkeit sifatlarini namoyon etish;
- sabr-qanoatlik, saxovatpeshalik va boshqa shu kabi xislatlarni shakkllantirish zarur.

Hayotda o'z fikriga ega bo'lgan va uni erkin ifoda etadigan yoshlar Vatanga sodiqlik, fidoyilik va fuqarolik his tuyg'usi bilan o'zining madaniy, tarixiy, ma'naviy-ma'rify bilimini doimo oshirib boradi. Bu esa yoshlarga hayotda o'z o'rnini topish imkonini beradi. Eng muhim ma'naviy tarbiyalangan va aqliy qobiliyatga ega bo'lgan yoshlar amaliy ishlar qila oladi. Ular mamlakatning ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy hayotida faol ishtirok etadi.

Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor beriladi:

1. Yoshlar bilan yakka tartibda ish olib borishni kuchaytirish va oilaviy xususiy tadbirkorlikni kengaytirish.
2. Yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy

faolligini kuchaytirish, xorijiy tajribalarni o'rganish orqali ularning tadbirkorlik faoliyati va salohiyatini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

3. Ishbilarmon yoshlarga maslahatlar, biznes ta'lim, ma'lumotlar berish va jamiyatda yoshlarning yetakchi, tadbirkor sifatidagi ijobji imidjini namoyon etish.

4. YosHLAR tadbirkorligining yangi samarali yo'va vositalarini topish, shakl va usullariga ega bo'lish asosida yuqori natijalarga erishish.

5. Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatida ijodiy izlanuvchanlik, topqirlik, hozirjavoblik, kamtarlik, muomala madaniyatiga ega bo'lish va bir necha tilda muloqotga kirisha olish hamda kompyuter savodxonligiga jiddiy e'tibor berish.

6. Tadbirkorlik faoliyatida yoshlarning o'z o'ziga refleksiv savollarni berishlariga erishish, ya'ni:

- men tadbirkorlik bo'yicha nimalarni bilishim kerak?
- menga bu bilimlar nima uchun kerak?
- men nega bu ish bilan shug'ullanishni xohlayapman?
- tadbirkorlik ishini nimadan boshlashim kerak?
- nimani o'zgartirish kerak va nima uchun o'zgartirish kerak?
- tadbirkorlik ishida qanday qiyinchiliklar bo'ldi yoki bo'ladi?
- muammolarni bartaraf etishda zamonaliv bilimlarni oldimmi?

- tadbirkorlik faoliyatining keyingi istiqbolini tasavvur etish uchun nimalarni bilish zarur va hokazo.

Bir so'z bilan aytganda yoshlar tadbirkor bo'lsa, bu uning eng foydali faoliyati bilan shug'ullanishi va o'ziga qulay sharoitlarni yaratishiga imkon beradi. Jamiyatda yoshlar ilmi bo'lsa, ular o'zi yashayotgan davlatidagi barcha qonun-qoidaga e'tiborli va unga amal qiluvchi, o'z kasbining ustasi bo'lishga erishadi.

Darhaqiqat, hayot haqiqatini yaxshi anglagan yoshlar o'zi uchun zarur bo'lgan barcha bilimlarni olishga intiladi. Bu esa ularning aniq maqsad bilan mamlakat kelajagi sari olg'a intilishlari uchun zarurdir.

**Oysoat XUDOYOROVA,  
tyutor**



## AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR SARHISOBI



*Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Patologik Anatomiya tibbiyat markazida mazkur muassasa tomonidan 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar hisobotiga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi.*

Ushbu tadbirda Patologik Anatomiya tibbiyat markazi bosh direktori Rajab Isroilov markazning ish faoliyatini sarhisob qilgan holda amalga oshirilgan ishlarga to'xtalib otdi.

"Biz Patologik Anatomiya tibbiyat markazi xodimlari bemor davolamasakda, ro'y berayotgan o'limalr sababini aniqlashimiz va bunga erisha olsak, o'limalr soni kamayishiga hissa qo'sha olamiz", deya so'zida davom etgan R.Isroilov, barcha xodimlarga mashaqqatli kasblarida muvaffaqiyat tilab, ish jarayonlarini birma-bir misollar bilan yildan yilga rivojlanib borayotgan, tibbiyat sohasidagi o'zgarishlarni gapirib otdi.

Shu bilan birga xodimlarning ish faoliyatini yuksak baholagan holda, vrachdan tortib kichik tibbiyat xodimlarigacha faxriy yorliq, sovgalar ularashdi. Taqdirlashda Patologik Anatomiya tibbiyat markazi professori Erkin Eshbayev, Sobirjon Xudaynazarov, Dilshodbek Allaberganovlar samimiy so'zlari bilan xodimlarni qutlashdi.

Tadbir davomida markaz direktori kelgusidagi bir qator yangi maqsadlar, rejalar bilan xodimlarni tanishtirib otdi.

Jumladan, biopsiya materiallari talablari, histologik tekshiruvlar, atrof-muhit ozodaligi, SanQvaMga bo'lgan talablarga alohida to'xtaldi. Bundan tashqari, laboratoriya tekshiruvi amaliyotiga alohida urg'u berib, xodimlar va kichik tibbiyat xodimlariga o'z minnatdorchiligini bildirdi.

Ushbu tadbirdan men tibbiyat xodimlari kasalliklarning oldini olish va turli kasalliklarni davolash, profilaktika va jarayonlarni bartaraf etish bo'lsa, Patologik Anatomiya tibbiyat markazi xodimlarining o'z ishiga sadoqat bilan yondashib ishlashlari, mas'uliyatlari soha xodimlari ekanligini his qildim.

Patologik Anatomiya tibbiyat xodimlariga sharafla va mashaqqatli kasblarida ulkan sabr, metin bardosh va ketmas ilm, kuch-quvvat tilab qolaman.

Barnoxonim YULDASHEVA,  
Alfraganus universiteti Tibbiyat fakulteti davolash ishi  
3-bosqich talabasi

## TIB XODIMINING SIR SAQLASHI – DEONTOLOGIYA ASOSIDIR

*"Johil tabib jallod bilan bir xil maqomdadir, jallod tig' bilan o'ldirsa, johil tabib so'z bilan o'ldiradi".  
Mir Alisher Navoiy.*

*Iqtibosda hazrat Mir Alisher Navoyidan bejiza hikmat keltirmadik, zero bugungi kungacha bu mavzu dolzarbigicha qolib, tabib va tib xodimlarining asosiy qiyofasini, siyрати va suratini ko'rsatib turadigan muhim tamoyillardan biritidir.*

Ustoz, professor Erkin Yo'doshevich Qosimov umrлari adog'iga qadar tibbiyot ilmgohlarida tibbiy deontologiya va kasb etikasi, bo'lg'usi tib xodimlarda muomala madaniyati va muloqot san'atini o'rnatuvchi kafedra tashkil qilinishi lozimligi uqtirib o'tdilar (Alloh ustozimizni rahmat qilsin). Ammo konservativ rahbarlar meditsinaning ushbu zarur sohasining taraqqiyotiga e'tibor bermadilar. Shuningdek, bizning Sog'liqni saqlash vazirligiga bu borada yozgan taklifimiz ham besamarligicha qoldi. Bularning barchasi muomala madaniyati va muloqot san'atidan bebahra tib xodimlari qatlamining shakllanishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining bergan ma'lumotiga qaraganda, bir yilda hududlarimiz bo'yicha vazirlikka tib xodimlari ustidan yuzlab shikoyatlar tushadi, shularning ma'lum bir qismi shifokorning muloqot san'atidan bebahraligi, bemor sirini saqlay olmaganligi xususida bo'lib chiqmoqda. Akademik V.Petrovskiy o'zining "Deontologiya v meditsine" monografiyasida keltirishicha, Moskvida teri-tanosil kasalliklari shifokori tur mushga chiqmagan qizda so'zak borligini, uning qo'shnilariga vaysab qo'yadi, oqibatda 19 yashar talaba qiz o'zini osib qo'yadi. Meditsina va tabobat tarixida bunday hodisalar tiqilib yotibdi. Biz o'z amaliyotimizda ham bunday hodisalarini yetarlicha uchratganniz. Bundan o'ttiz yilcha muqaddam TOSHPMI klinikasida bolalar jarrohligi kafedrasida ishlab yurgan paytim o'tkir ko'richak bilan 15 yashar qizaloqni operatsiya qilgan jarroh uning qorin sohasida oq dog'-vitiligo borligini ko'rgani kelgan sindoshlariga aytgan, oqibatda qizaloq o'zini o'dirishiga bir bayha qolgan.

Albatta, bemordagi hamma narsani yashirib bo'lmaydi, ammo ular tegishli organlar, tegishli joylardagina aytishli lozim, xolos. Masalan, ftiziatriyada bemordagi sil kasalligi haqida, uning qarindoshlari, hudud shifokorlariga xabar berilishi kasallikning tezroq tuzalishiga va tarqalib ketishining oldini olishga sabab bo'ladi. Ammo, undagi bu holatni duch kelgan odamga, uning qo'shnilar, hamkasblarga aytilib bo'lmaydi, negaki xalq orasida hanuzgacha sil kasalligi bedavo degan tushuncha yuradi, bu bemorning kelajigiga va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bemorda OITS-VICH borligi haqidagi xabarni ham keng tarqatib bo'lmaydi, zarur idoralar va tashkilotlar so'rovnomasiga ko'ra qat'iy cheklanib, xabar tarqatiladi. Chunki, OITS birga ishlaganda, oddiy muloqotda yuqmaydi, balki qon orqali, biologik suyuqliklar orqali yuqadi, xolos. Qolgan hollarda xastalangan bemor jamiyatning munosib a'zosi, hujayrasи sifatida hayot kechirishi va atrof-muhit uchun mutlaqo xavfsiz bo'lishi mumkin.

Ottiz besh yillik shifokorlik, olimlik amaliyotimizda davralarda, bazmlarda, alkogol iste'mol qilib olgan ba'zi tib xodimlarining og'ziga erk berishi va o'z mijozidagi eng nozik hilqatlarni davraga dasturxon qilishlariga ko'p martalab guvoh bo'dilik. Islomdan boxabar tibbiy deontologiya va kasb etikasidan bahra olgan tib xodimlari hech qachon bunday pastkashlik va noinsonlikka yo'l qo'ymaydilar.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, bo'lg'usi tib xodimlariga ularning maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlarini o'rnatib turuvchi kasb etikasi va deontologiya fanini keng targ'ib qiluvchi maqololarni ko'proq chop etish, darslik va o'quv qo'llanmalarini nashr etish, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish va albatta mazkur nomdag'i kafedra tashkil etish vakolatini vazirlik va Akademiya miqyosida o'ylab ko'rish lozim. Agar shularga e'tiborni kengroq qaratmas ekanmiz, muomala, murosa-madorada no'noq, halimlik va xushmuomalalikdan yiroq, dimog'idan qurt yog'uvchi takabbur, bemor sirini saqlay olmovchi tib xodimlari ko'payib boraveradi.

Bu esa o'z-o'zidan aholining norozichiliklari ko'payishi va shikoyatlar ko'proq yozilishiga, og'irroq hollarda esa tib xodimlariga nisbatan tajovuzkorlikning ko'payishiga olib keladi.

**Alijon FAQIROV,**  
**Turon fanlar akademiyasi va Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi**  
**akademigi, Respublika Sog'liqni saqlash a'lochisi,**  
**Qutbiddin NIZOMOV,**  
**Turon fanlar akademiyasi akademigi, Respublika Sog'liqni saqlash a'lochisi**



# YOSHLARNI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISH JAMIYAT POYDEVORINI MUSTAHKAMLASHDA MUHIM ASOSDIR

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, shakllanayotgan madaniy bozor munosabatlari, ishlab chiqarishning keskin rivojlanishi, fan va texnikaning taraqqiyoti qizg'in kechayotgan davrda jamiyat va shaxs ehtiyojarining uzviy mutanabsiliga erishish yoki uni ta'minlash oson ish emasligini tasdiqlamoqda.

Yoshlar doim o'z iqtidori, salohiyati, aqliy va intellektual potensialiga mos va jamiyat uchun manfaat keltiruvchi kasblarni tanlay olmaydi. Bu muammoni yechish uchun yoshlarda kasb tanlashning ijobjiy motivlarini shakllantirishda jamiyat va jamoatchilik ta'sirini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur hayotiy dolzarb muammoni hal etishda oila va maktab, jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari yaxlit tizim sifatida bir maqsad atrofida uyushishlari kerak.

Jamiyatning barcha sohasida olib borilayotgan tub islohotlar uzuksiz ta'limgizining bosqichlaridan biri hisoblangan umumiyligi o'rta ta'limgizining muhim vazifalaridan biri – o'quvchilarni hayotga tayyorlash va kasb tanlashga yo'naltirishdan iboratdir. Kasbga yo'naltirish – shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat sub'yekti sifatida o'ziga nisbatan shakllanish jarayonini o'taydi, ya'ni kelajakda bozor iqtisodiyoti munosabatlarga moslashib borishga zamin yaratadi.

Kasbga yo'naltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil ishlashning ilmiy-amaliy tizimi sifatida qarash lozim. U har bir shaxsning ham individual xususiyatlarini va bozor iqtisodiyoti ehtiyojarini hisobga olish kerak. Umumiy o'rta ta'limgizining maktablarida o'quvchilarning mehnat ta'limgizdarlarida oлган bilimlari, amaliy ko'nikma va malakalari, ulardagi umumiy mehnat tayyorgartliklarini, bozor iqtisodiyotining aniq bir sohasida qo'llash imkoniyatlarini oshib berish lozim. Shu bilan birga umumta'limgiz fan o'qituvchilari ham organilayotgan mavzuni dasturlari asosida, ya'ni mantiqiy ketma-ketlikda, fan xususiyatlarini hisobga oлган holda o'quvchilarni mehnat jarayonlari, mehnat turlari va texnologiyalari bilan tanishdirish borish, respublikamizning iqtisodiy imkoniyatlarini oshib berishga qaratmog'i lozim.

Hozirgi kunda umumiyligi o'rta ta'limgizining maktablarida tashkil etilayotgan kasbga yo'naltirish ishlari o'quvchilarning jamiyatda o'z o'rnni topishiga katta yordam beradi. Bu jarayonda mintaqaviy kasblarni targ'ib qilish bilan birgalikda, o'quvchilarga

kasblar to'g'risida umumiy ma'lumot berish, konsultatsiyalar o'tkazishga yordam beradi.

Oilda bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash maktabgacha bo'lgan yoshdan boshlanadi. Bo'lg'usi kasbni tanlashga tayyorlashda bolalarning qiziqishlari, qobiliyatlarini va imkoniyatlarini muntazam ravishda o'rganish zarur. Kasb tanlashda xato qilmaslik uchun bolalarga avvalo mablag' va oila yordam berishi kerak.

O'rta maktab o'quvchilari va texnikum talabalarini kasbga yo'naltirishga oid ishlarni ta'limgiz yollari orqali uzviylik va izchillik bilan olib borilishi kerak.

Ta'kidlab o'tganimizdek, to'g'ri kasb tanlash insonnинг kelajakdagisi hayot tarzini belgilashda katta ahamiyatga ega. Har bir yosh avlod o'z kasbini qiziqishi, qobiliyati, ijtimoiy nuqtai nazardan kelib chiqib tanlaydi. O'quvchilarda kasbiy o'zlikni anglashni shakllantirish davrida aniq bir kasbni tanlashning shaxsiy ma'noga egaligini tushunib yetish xislatlarni shakllantirishdan iborat. Bizning jamiyatimiz har bir shaxsning qobiliyatlarini to'liq namoyon bo'ladigan, yugori samara bilan ishlay oladigan faoliyat va shart-sharoitlar bilan band bo'lishiga katta e'tibor berayotganini ko'rishimiz mumkin. Kasb-hunarga yo'naltirish ishining maqsad va vazifasi shu hudud ehtiyoji uchun zarur kasblar, kasb-hunar kollejlarning mavjud soha yo'nalishlariga o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga oлgan holda tavsija berishdan iborat. Kasblar to'g'risida axborot berishda o'quvchilarni turli xil texnologik turlari, kasblar shajarasi, kasblarning o'ziga xos xususiyatlarini to'g'risida tartibsiz ma'lumot bermastik uchun o'quvchilar oladigan bilimlarni ma'lum bir tizimga solish lozim. Kasblar haqida axborot berish o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga oлgan holda olib borilishi zarur.

Toshkent tibbiyot akademiyasining Normal va patologik fiziologiya, Klinik modellashtirish, Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedralari xodimlari, o'quv uslubiy boshqarma xodimlari ishtirokida Zangiota Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi talabalarini bilan kasbga yo'naltirishga qaratilgan tadbir o'tkazildi.

Tadbir TTA bosh o'quv binosining Klinik modellashtirish kafedrasini hujudidan boshlandi. Tadbirni Normal va patologik fiziologiya kafedrasini mudiri, professor B.Iriskulov oshib, texnikum talabalariga

shaxsning kelgusidagi faoliyati, hayotda o'rnni topishida tanlagan kasbining ahamiyatiga to'xtalib o'tdi. Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasini mudiri, professor G.Tulkunova ham bu haqida o'ziklari bildirdi.

So'zga chiqqan dotsent Z.Boboyeva ishtirokchilarni kun tartibi bilan tanishirib, talabalarni shifokorlik kasbini egallash uchun qanday nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalarini egallash muhimligi haqida tushuntirdi.

Talabalar TTAdagi o'qish jarayonining qisman qanday kechishini Klinik modellashtirish kafedrasidagi simulyatsion markaz bilan tanishishdan boshlashdi. Kafedra xodimlari texnikum talabalariga shifokorlarning eng zaruriy bilishlari kerak bo'lgan amaliy ko'nikmalarini mulyaj vositasida ko'rsatishdi, nazariy ma'lumot berildi. Talabalarning amaliyotda o'zlarini guvoh bo'lgan tibbiy muammolarga yechim topishga yo'naltiruvchi ma'lumotlar berib o'tildi.

Tadbirning keyingi bosqichida talabalar bosh o'quv binoda joylashgan Normal va patologik fiziologiya kafedrasini faoliyati bilan tanishishdi. Kafedra professori S.Azimova shifokorlik kasbi haqida, uning jamiyatda tutgan o'rni, oliygohda o'qish tartibi, bakalavraviya va magistratura yo'nalishlari haqida talabalariga ma'lumot berdi.

So'ng'ra kafedra katta o'qituvchisi R.Tadjibayevanining hozirgi vaqtida ayollarga oid dolzarb muammo bo'lgan "Anemiylar" mavzusidagi ma'ruzasi tinglandi.

Tibbiy profilaktika yo'nalishi faoliyati bo'yicha Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasini dotsenti Sh.Kurbanova "Ishlab chiqarishda sanitariya epidemiologik nazorati va jamoat salomatligi xizmati" mavzusida ma'ruba o'qib, talabalarni qiziqitirgan savollariga javob berdi.

Talabalar sanitariya-gigiyena xizmati qanday yo'lg'a qo'yilganligi, inson salomatligini saqlash uchun qanday gigiyenik normalarga rioya qilish kerakligi haqida ma'lumotga ega bo'lishdi.

Talabalar TTAdagi o'quv jarayoni, talabalariga yaratilgan sharoitlar, fan to'garaklari, talabalar ilmiy jamiyatini haqida ko'plab savollar berib, to'liq ma'lumot olishdi. Interfaol usulda o'tkazilgan tadbirda ta'limgizning muassasasi talabalarini va ustozlari kerakli ma'lumotga ega bo'dilar.

**Z.BOBODEVA,  
Normal va patologik fiziologiya  
kafedrasini dotsenti**





*Bugungi globallashuv davrida har bir millat rivoji uning ilmda peshqadam, intiluvchan, zehnli yoshlariga chambarchas bog'liqdir.*



o'nga yaqin ilmiy maqolalar muallifi. Birgina o'tgan 2023-yilning o'zida Toshkent tibbiyot akademiyasida o'tkazilgan "Followers of avitsenna" III Xalqaro onlayn fan olimpiadasida IV-seksiya "Pediatriya" yo'naliishi bo'yicha 1-o'rinn, Toshkent davlat stomatologiya institutida o'tkazilgan "Yosh olimlar kuni" Respublika ilmiy-amaliy anjumanida Terapevtik yo'nalishdagi fanlar bo'yicha 1-o'rinn, Andijon davlat tibbiyot institutida o'tkazilgan "Tibbiyotning dolzARB muammolariga innovatsion yondashuv" mavzusida

## FAOL YOSHLAR DOIMO E'TIROFDA

O'z xalqini dunyoga tanitishda yoshlarning salohiyati, buyuk kelajakka bo'lgan ishonchi va harakati muhim o'rinn tutadi. Mazkur maqola qahramonini shunday ilg'or yoshlar qatorida desak mubolag'a bo'lmaydi.

Sayfiddin Hoji Qadriddin Toshkent tibbiyot akademiyasi Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof-muhit gigiyenasi, kimyo fakultetining 5-bosqichida tahlil oladi. U xalqaro va respublika miqyosidagi qator tanlovlari, olimpiadalar g'olib, ilmiy-innovatsion loyihamalar muallifi.

Qadriddin o'zining mazkur sohadagi faoliyatini boshlanishini quyidagicha izohlaydi: "Men 2019-yil Toshkent tibbiyot akademiyasiga o'qishga qabul qilingach, 4-kursga qadar hamma talabalar qatori tibbiy fanlar, o'quv mashg'ulotlari bilan band bo'ldim. Atrofimdag'i iqtidorli yoshlarga doim havas bilan qaradim. Turli tanlov, olimpiada, konferensiyalarda ishtirok etishga harakat qildim. Aniq maqsad sari qilgan harakatlarim va shaxsiy rivojlanish tomon bosgan ilk odimlarimning natijasi namoyon bo'lishni boshladi".

Qahramonimizning hayotiy tajribasi xalqimizning "Hechdan ko'ra kech", "Yaxshi ot keyin chopadi" singari hikmatli maqollarining amaliy ifodasi ekanligini ko'rib turibmiz. Sayfiddin Hoji Qadriddin o'tgan yilda iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulug'bek" jamg'armasi, Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Toshkent shahar hokimligi tomonidan tashkil etilgan "Mirzo Ulug'bek vorislari" Respublika tanlovi g'olib bo'ldi. Hozirda

Respublika yosh olimlar ilmiy-amaliy anjumanida 1-o'rinn, Toshkent davlat pediatriya tibbiyot institutida o'tkazilgan "Bugungi kun ilmiy izlanish yoshlar nigohida" mavzusida "Talabalar ilmiy jamiyat"ning Respublika 51-ilmiy-amaliy anjumanida 1-o'rinn g'olib bo'lib, o'z yutuqlari safini kengaytirdi. Ushbu yutuqlar barobarida Qadriddin harakatchanligi, tashkilotchilik qobiliyati sababli TTA Yoshlar akademiyasi lideri lavozimiga tayinlandi. Liderlik faoliyati davomida ham ko'plab ilmiy-innovatsion tanlovlarni tashkillashtirishda jonbozlik ko'rsatib kelmoqda.

Qadriddin nafaqat ilmiy-innovatsion, tashkilotchilik faoliyati bilan birga, oddiy bir farzand o'laroq odob-axloqi, atrofdagilar bilan munosabati, o'zini tutishi bilan ham ustozlari va tengdoshlari tomonidan hurmat qozongan. Ayni vaqtida qahramonimiz o'z yutuq, tajribalari bilan boshqa tengdosh, kursdosh va do'stlarini ham ezgu maqsad sari yelkadosh bo'lismaga chorlamoqda. Shu asnoda seminar-treninglar tashkil etib, ularda grantlar, stipendiyalar sovrindori bo'lism, ilmiy-innovatsion loyihamalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish kabi mavzular bo'yicha qiziquvchilarga yaqindan yordam berib kelmoqda. Biz mana shunday iqtidor sohiblarining safi Qadriddin singari ilg'or, faol yoshlar bilan kengayganidan mammununuz. Qahramonimiz bu qamrovni yanada kengaytirishda o'z hissasini qo'shishdan aslo charchamasligini tilab qolamiz.

**Oysot XUDOYOROVA**





# Zulfiyaxonim

## HAYOTI VA IJODI – YOSHLAR UCHUN IBRATDIR

*"Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar galbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz".*

Shavkat MIRZIYOYEV

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 20-may kuni Toshkent shahrida barpo etilgan Adiblar xiyoboni va xiyobon yonida tashkil etilgan kutubxonaga tashrifi chog'ida Alisher Navoiy haykali atrofida 20 dan ziyod atoqli shoir va adiblarning haykallari yaxlit joylashtirilgan me'moriy va badiiy kompozitsiya hamda uning mantiqiy yechimi bilan tanishib, Adiblar xiyobonini adabiyot, ma'rifat va madaniyat maskaniga aylantirish haqida ko'rsatmalar bergen edi.

Prezidentimiz har bir adib haykali muayyan oliy o'quv yurtiga biriktirilib, bu yerda ochiq darslar, ma'rifiy tadbirlar o'tkazish bo'yicha tavsiyalar berdi. Faqat xiyobon bilangina cheklanib qolmasdan, adiblar ijodini chuqur o'rganish, ularning ibratli umr yo'llari haqida kitoblar va filmlar yaratish, yangi asarlar yozish muhimligi ta'kidlandi.

Adiblar xiyoboni bugungi kunda chin ma'nodagi adabiyot, ma'naviyat va ma'rifat maskaniga aylandi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi talaba-yoshlari Zulfiyaxonim yodgorlik haykali oldida o'zbek she'riyatining yorqin namoyondasi, o'z o'rniغا va o'z uslubiga ega bo'lgan, o'zbek qizlari havas bilan boqadigan Zulfiyaxonim xotirasiga bag'ishlangan ma'naviy-

ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, sevimli shoiraning hayoti va ijodini o'rganish va keng targ'ib qilish ishlari boshlab yuborildi va hozirgacha qisqa vaqt mobaynida ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, Zulfiya nomidagi ijodxonasi tashkil etildi. Toshkent tibbiyot akademiyasining kutubxonasida shoira ijodiga mansub asarlar burchagi tashkil etilib, unda shoira Zulfiyaning barcha ijod namunalari jamlandi. Shuningdek, TTA rasmiy veb-saytida "Zulfiyaxonim ijodini o'rganamiz" sahifasi tashkil etildi.

Hozirda 2225 nafardan ziyod talaba a'zo bo'lgan "Keling, Vatanimizga qanot bo'laylik", "TTAning ijodkor talabalari" telegram guruhlarida Zulfiyaxonimning hayot va ijod yo'llariga bag'ishlab erkin yo'nalishlarda (audiorolik, videorolik, taqdimot, she'r, insho, qo'shiq, kuy, rassomchilik mahorati) ijodiy ishlar tanlovlarini e'lon qilindi. Tanlov tashkilotchilariga bugunga qadar talabalar tomonidan Zulfiya qalamiga mansub she'rlar asosida tayyorlangan audiosherlar, talabalarning o'z badiiy va tasviriy ijod namunalari, Zulfiya asarlari bo'yicha talabalar tomonidan ijro etilgan kuy, qo'shiqlar taqdim etilmoqda.

etilmoqda.

Bundan tashqari, Toshkent tibbiyot akademiyasida "Men sevgan shoira", "Baxtim shul - O'zbekning Zulfiyasiman" mavzularida onlays insholar tanlovlarini va "Zulfiyaxonim portretiga chizgilar" rukni ostida rasmlar ko'rgazmasi tashkil etilib, unda 100 dan ortiq talabalar faol ishtirok etib, Zulfiya ijodini batafsil yoritib berishdi.

Yana bir muhim yangiliklardan biri bugungi kunda Toshkent tibbiyot akademiyasida "Zulfiyaxonim izdoshlari" qizlar klubini tashkil etilgan bo'lib, unda hozircha 20 dan ziyod Toshkent tibbiyot akademiyasining ijodkor talaba qizlari faoliyat yuritishmoqda.

Toshkent tibbiyot akademiyasi rahbariyati, yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, Akademiya professor-o'qituvchilari nafaqat Zulfiya ijodi, balki boshqa adiblar ijodi va faoliyatini o'rganish oyligida faol ishtirok etib, adiblar hayotini, ilmiy ijodini mukammal o'rganib, talabalar orasida keng targ'ib etishmoqda.

Umida RAXMONOVA,  
Toshkent tibbiyot akademiyasi  
2-son Davolash ishi fakulteti  
4-bosqich talabasi



# GILAM PAYPOQ

(8-mart arafasida)

Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelardim. Kavkaz tomonda juda ko'p bo'ladi. Juba deyishadi, jurabi deyishadi. Oyim xuddi noyob narsaga ega bo'lgandek, uzundan-uzun duo qiladi. Shundoq mehribon o'g'li borligini aytib qo'shnilar maqtanadi. Uning oyog'i kasal. Salqin tushishi bilan shishib ketadi, og'riydi. Qo'ni-qo'shnilar ahvol so'rasha, ularniyam, o'ziniyam yupatadi.

- Ha, endi keksalik-da, o'rgilay.

Lekin onamning oyoq og'rig'i faqat keksalikdan emas. Buni boshqalar bilmasa ham, men bilaman. Yaxshi bilaman. Bolaligimda ko'p kasal bolardim: qizamiq, ko'kyo'tal, bezgak... Shuning uchun oshxonadagi mixda ko'k qarg'aning patidan tortib, gultojixo'rozgacha ilig'lik turardi... Ayniqsa, tomoq og'rig'i yomon qiyaydi. Oyog'im zaxga tegishi bilan tomonqim og'rishga tushadi. Oyoq bilan tomonqini nima aloqasi borligini haliyam tushuna olmayman. O'shanda necha yoshligim esimda yo'q. Biroq juda kichkina edim. Bir kuni akalarim bilan yaxmalak o'ynab terlab ketdim. Terlab turib muz yedim. Kechqurun isitma ko'tarildi. Quv-quv yo'talaman. Oyim tomonqimni achchiq tosh bilan chayib ko'rди, bo'lindi, turshak qaynatib suvini ichirdi, bo'lindi... Oxiri tomonqim xippa bo'g'ilib qoldi. Og'riqni sezmaymanu nafas olishga qiynalaman. Hushimdan keta boshlaganimni es-es bilaman. Qulog'im ostida onamning chirqillab yig'lagani, hadeb bir gapni qaytarayotgani eshitiladi:

- Voy, endi nima qilaman! Voy, bolam o'lib qoladi! Keyin meni shoshapisha ko'rpaqchaga o'radi. Bir mahal onamning qo'lida ketayotganim esimda bor. Gupillatib qor yog'ayotganini his etib turardim, biroq yuzimga qor

tushmas edi. Onamning issiq nafasi urilib turar, u sirg'anib-sirg'anib borar, og'ir hansirar edi. Xira chiroq militirab turgan allaqanday uya kirdik. Ko'z o'ngim yana qorong'lashib ketdi. Oyim hamon chirqillaydi.

- O'lib qoladi! Bolaginam o'lib qoladi!

- Vahima qilmang, poshsha, dardni bergan Hudo, davosiniyam beradi. Bu Hoji buvining ovozi ekanini g'ira-shira idrok etdim. Hoji buvi boshimni tizzasiga qo'yib chalqancha qilib yotqizdi. Doka o'ralgan barmog'i og'zimga tiqdi. Ko'nglim ag'darilib, tipirchilaganimcha yig'lar, ammo Hoji buvining qo'lidan chiqib ketolmasdim. U tomonqimga nimadir qildi. Dod solib qo'lini tishlab oldim. Qiziq, birpasdan keyin ahvolim yengillashdi. Ko'zimni ochsam, Hoji buvi jilmayib turibdi.

- Nega tishlaysan, kuchukvoy? - dedi boshimni silab. Keyin tepamga oyim engashdi. U hamon hansirar, sochlari to'zg'ib ketgan, yuzi jiqqa ho'l edi. Birpasdan keyin qaddimni rostlab, tanchaga oyog'imni tiqib o'tirdim. Hoji buvi allaqanday taxir suyuqlik ichirdi. Keyin oyimga qaradi-yu, birdan xitob qildi.

- Voy poshsha-a-a! Nima qilib qo'ydingiz, tamom bo'psiz-ku! Oyim talmovsirab, goh menga, goh Hoji buviga qarar edi.

- Oyog'ingizdan ayrilibsiz-ku! - dedi Hoji buvi boshini chayqab. - Shu ahvolda qandoq keldingiz? Kavshandozda turgan oyimning kalishini endi ko'rdim. Kalishning ichi qorga to'la edi.

- Sarpochan kelaverdingizmi?! - dedi Hoji buvi hamon o'sha



*O'tkir HOSHIMOV,  
O'zbekiston xalq yozuvchisi*

vahimali ohangda. - Endi nima qilasiz? Qarg'aning miyasini chaqib surmasangiz, cho'loq bo'lib qolasiz. Oyim tanchadan oyog'ini chiqardi. Ikkala oyog'i qip-qizil go'sht bo'lib ketgan edi. - Sovuq yegani yo'q, - dedi sekin. - Qaytaga isib ketdi. Qorda o'zi isib ketarkan. Hoji buvi uning oyog'ini uqalab ko'rdi.

- Sezayapsizmi?

- Nimani?

- Qo'limni sezayapsizmi? Oyim indamay bosh chayqadi-da, piqillab yig'lab yubordi. ...Ertasiga u yotib qoldi. Uzoq yotdi. Hoji buvi qo'lidan kelgancha dori-darmon qildi... Keyin oyim tuzaldi. Biroq salqin tushishi bilan oyoqlari shishib, azob beradigan bo'lib qoldi...

Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelardim. U xuddi noyob narsaga ega bo'lgandek, uzoq duo qiladi, birpasda hamma qo'shnilara ko'z-ko'z qilib chiqardi, shundoq "mehribon" o'g'li borligini aytib maqtanadi. Shunda qor guppillab yog'ib turgan mudhish kecha, onamning qip-qizil go'shtga aylanib ketgan oyoqlari ko'z o'ngimga keladi-yu, indamay chiqib ketaman.

## TAHRIRIYATDAN

*Muharam o'quvchi, aziz va sevimli gazetxon do'stim! Sizchi, Siz ana shu bayram kunlari arafasida xotiningizga qimmatbaho po'stin olib berayotganingizda Onangizga bir kiyimlik ko'yak qo'shib olish yodingizdan chiqmadimi?*

*O'z uyingizni chet el mebeli bilan to'ldirib qo'yg'aningizda onangizga aqallib bo'yradakkina gilamcha sovg'a qilishni unutmadingizmi?*

*Qizingizni tug'ilgan kunida atlas ko'yak, o'g'lingizga velosiped bilan qutlaganingizda Onangizga oddiy bir paypoq olib berish esingizdan chiqmadimi?*

*Xulosa o'zingizdan...*



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV  
E'LON QILADI  
(2024-yil fevral)**

Nº	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
<b>1-son davolash fakulteti</b>		
1.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	dotsent – 1,0
2.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	assistant – 1,0
<b>Malaka oshirish fakulteti</b>		
1.	1-son Fakultet va gospital xirurgiya	assistant – 1,0
<b>Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti</b>		
1.	Pedagogika, psixologiya va tillar	o'qituvchi – 1,0
2.	Bolalar kasalliklari propedevtikasi	dotsent – 1,0
<b>Tibbiy pedagogika fakulteti</b>		
1.	Yuz jag' jarrohligi va stomatologiya	mudir – 0,25
<b>Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va OMX fakulteti</b>		
1.	Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va informatika	assistant – 1,0

**Hujjatlar tanlov e'lona qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.**

**Manzil: Olmazor tumani, Farobi y ko'chasi, 2-uy.**

Oydin HOJIYEVA

**ONAJONIM**

*Onajonim, ko'zlariningizda,  
Kunning nafaslari bor edi,  
Onajonim, yuzlaringizga,  
Oyning havaslari bor edi.*

*Onajonim, siz bilan jahon,  
Behigulday iforli edi.  
Tunlar oydin, kunlar shodmon,  
Shabadalar dutorli edi.*

*Tushlarimga kirib chiqasiz,  
Sochlarimni o'rib chiqasiz.  
Farishtaday boshim uzra goh,  
Oromimni ko'rib chiqasiz.*

*Talpinaman, quchsaydim qani?  
Sog'inchlardan qo'chsaydim qani?  
Ko'z yosqlarim gulga aylansa,  
Poyingizga sochsaydim qani?  
Onajonim! Jonajonim!*

MUASSIS:  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

MUHARRIR  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAY'ATI:  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinnbosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent  
Tibbiyot akademiya RIZOGRAFIda  
400 nusxada chop etildi.  
Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Farobi  
ko'chasi, 2-uy  
Nashr uchun mas'ul  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot  
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda  
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi  
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun  
mualliflar javobgardir

Bepul tarqatiladi